

10-mavzu: ARPA (JAVDAR, SULI) YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Arpa yetishtirish texnologiyasi
2. Javdar yetishtirish texnologiyasi
3. Suli yetishtirish texnologiyasi

1. *Kuzgi arpa* sug`oriladigan erlarda kuzda ekiladigan maydonlar chimqirqarli pluglar bilan 25-27 sm, lalmikorlikda 20-22 sm chuqurlikda haydaladi va bir yo`la boronalash o`tkaziladi. Haydash chuqurligi o`tmishdosh ekin va o`tmishdosh ekinni ekishdan oldingi haydash chuqurligi hisobga olinib o`tkaziladi.

Urug`lar 1 va 2 sinf talablariga javob berishi hamda fungitsidlar bilan ishlanishi talab qilinadi.

Sug`oriladigan erlarda kuzgi arpa Samarqand, Jizzax, Toshkent viloyatlarida oktyabrning ikkinchi o`n kunligi, Qoraqalpog`iston Respublikasi, Xorazm viloyatlarida oktyabrning birinchi o`n kunligida, janubiy viloyatlarda oktyabrning oxirgi o`n kunligida ekiladi. Kuzgi arpani maqbul ekish muddatidan erta yoki kech ekish o`simliklarni qishda sovuq urishiga, siyraklashishiga, hosilni pasayishiga olib keladi. Lalmikorlikda oktyabr oyining oxirgi o`n kunligida ekish eng maqbul muddat hisoblanadi.

Ekish usuli - tor qatorlab (7-8sm), qatorlab, qatorlarni kesishtirib ekish. Ochiq maydonlarda qatorlarni kesishtirib ekish usuli ekish yaxshi natija beradi. Ekish chuqurligi 4-6 sm. Ekish me'yori 4-4,5 mln. urug`G`ga. Ekish eng maqbul muddatdan kechiksa ekish me'yori 10-15% oshiriladi. Lalmikorlikda kuzgi arpa gektariga 2-2,5 mln. unuvchan urug` ekiladi.



Arpa ekish jarayoni

Kuzgi arpa erta bahorda ikki marta azotli o`g`itlar bilan oziqlantiriladi. Birinchisi erta bahorda 60-70 kgG`ga, ikkinchisi naychalash fazasining boshlanishida 50-60 kgG`ga. Azotli o`g`itlar bilan oziqlantirish yog`ingarchiliklar yoki sug`orish bilan uyg`unlashtiriladi. Begona o`tlarga qarshi Granstar mart oyida gektariga 15-20 g me'yorda qo`llaniladi.

Hosil donlar to`la pishganda yig`ishtirib olinadi.

Bahorgi arpa O`zbekistonda bahori juda erta fevral oyida, mart oyining boshlanishida, er etilishi bilan ekiladi. Ekish muddatini kechiktirish hosildorlikni keskin pasayishiga olib keladi.

Sug`oriladigan ehlarda ekish me'yori 4 -4,5 mln unuvchan urug`G`ga. Lalmikorlikda nam bilan ta'minlanganlik bo`yicha mintaqalarda 80 -110 kgG`ga ekiladi.

Ekish chuqurligi 4 -6 sm. Urug`lar nam tuproqqa ekiladi. Texnologik izlar qoldirilganda SPR -6, SZ -3,6, SZP -3,6 yoki seyalka kultivator SZS -2,1, SZS - 2,1 seyalkalaridan foydalaniladi. Izlar 1800 yoki 1400 mm kilib qoldiriladi. Bunda 6 -7 va 18 -19 ekadigan apparatlar berkitiladi. RUM -5 va 1 -RMG -4, NRU -0,5, OPSh -15 mashinalari bemalol yuradigan bo`ladi. Shuning uchun ekish albatta markerlar bilan o`tkaziladi.

O`g`itlash. Sug`oriladigan sharoitda ko`llanilgan ma'danli o`g`itlarning samaradorligi yuqori bo`ladi. Sug`oriladigan ehlarda azotli, fosforli, kaliyli o`g`itlarni to`la me'yorda berish hosildorlikni va hosil sifatini keskin oshiradi. Ekish bilan ta'sir qdluvchi modda hisobida gektariga 15 -20 kg granulalangan superfosfat yoki nitrofoska solinadi.

Sug`oriladigan ehlarda bahori arpa uchun ma'danli o`g`itlarning yillik me'yori azot 120 -150, fosfor 80 -100, kaliy 40 -60 kgG`ga tashkil qiladi. G ektariga 15 -20 t go`ng solish hosildorlikni 8 -10 sG`ga oshiradi. Mikroelementlardan bor, molibden, mis, ruxni qo`llash hosildorlikka ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Urug`lar ekishdan oldin 1 s uruqqa

10 g bor, 30 g mis, 18 g marganets, 12 g rux qo`shiladi.

Lalmikorlikda gektariga R40-60K30_40kg solinadi. Pivobop arpa uchun azotli o`g`itlar me'yori 30 -40% kamaytiriladi. Sug`orish, ekin parvarishi, hosilni yig`ishtirish bahori bug`doyniki singari.

2. Javdar etishtirish. Uzbekistonda javdar sutoriladigan va lalmikor erlarda ekiladi. Javdar Uzbekistonda oraliq ekin, yashil massasi va doni uchun etishtiriladi. Sug`oriladigan erlarda javdar oraliq ekin sifatida etishtirilganda yashil massa hosili 300 -350 sG`ga etadi. Doni uchun kam ekiladi.

Sug`oriladigan erlarda almashlab ekishlarda g`o`zadan keyin oraliq ekin sifatida etishtiriladi. Sholichilikka, paxtachilikka, ixtisoslashgan xo`ja-liklarda javdar sideratsiyada ko`llaniladi. Javdar uchun eng yaxshi o`tmishdoshlar: g`o`za, kartoshka, sabzavot, poliz, dukkakli don, qand lavlagi. Bir maydonga don uchun surunkasiga ikki yil ekilganda ham yaxshi hosil beradi. Sug`oriladigan erlarda o`stirish texnologiyalariga rioya qilinganda har gektardan 50 -60 s don hosil etishtiriladi.



Mineral o`gitlar

O`g`itlash. Javdar uchun o`g`itlash tizimini ishlab chiqishda kimyoviy agroxaritalardan foydalanib azot, fosfor, kaliy bilan tuproqni ta'minlangani hisobga olinadi.

Gektaridan 45 -50 s dan hosil olish uchun o`rtacha 110 -112 kg azot, 105 -110 kg fosfor, kaliy 82 -92 kg solinadi. Bunda albatta agrokimyoviy xarita ko`rsatkichlari hisobga olinadi. Gektariga 15 -20 t go`ng solish (sug`oriladigan erlarda) 8 -10 s ga qo`shimcha don hosili olishni ta'minlaydi. Ekish paytida gektariga 10 -15 kg granulalangan superfosfat yoki ammosfos shaklida fosfor solish hosildorlikni 3 -4 sG`ga oshiradi.

Tuproqni ishlash. Sug`oriladigan erlarda javdar uchun tuproqni ishlash kuzgi bug`doynikidan farq qilmaydi. Birinchi ekin hosilidan bo`shagan dala darhol 25 -27 sm

chuqurlikda haydaladi va bir yo`la boronalanadi. Ekish oldidan chizellanadi yoki 1 -2 kultivatsiya qilinadi.

Ekish. Javdarni ekishda tozaligi 97% unuvchanligi 90% kam bo`lmagan, sifatli, dorilangan, yirik urug`lardan foydalaniladi. Ekish oldidan urug`lar raxsil (2 %) preparati bilan 1,5 kgG`t hisobida «Mobitoks» yoki PS -10 mashinalarida 8 -10 l suv bilan bir tonna urug`ga hisobida ishlanadi.

Javdarda hosilni yig`ishtirgandan keyin urug`larning etilishi 1 oy atrofida bo`ladi. Yangi yig`ishtirilgan urug`larning unuvchanligi past bo`ladi. Urug`larni oftobda quritish, vaqti -vaqti bilan har 2 -3 soatda ag`darib turish ular unuvchanligini oshiradi.

Sug`orish. Javdarni sug`orish rejimi nam to`playdigan sug`orishlar va o`suv davridagi sug`orishlardan iborat. Nam to`playdigan sug`orishlar fonida 3 -4 o`suv davridagi sug`orishlarni 500 -600 m³ G`ga me'yorda o`tkazish yuqori hosil olishni ta'minlaydi.

Ekin parvarishi begona o`tlar, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi uyg`unlashgan usullarda kurashdan, yotib qolishni oldini oluvchi reterdantlarni qo`llashdan iborat.

Hosil bir va ikki fazali usullarda yig`ishtiriladi.

3. Suli agrotexnikasi. O`zbekistonda suli g`o`za, sabzavot ekinlari kartoshka, dukkakli don ekinlari, dukkakli o`tlardan keyin joylashtirilsa yuqori hosil beradi. Sulini qand lavlagidan keyin joylashtirishda, ildiz mevalarni nematoda bilan kasallanmaganligi e'tiborga olinadi. Sulini bir dalaga surunkasiga ikki yil ekish hosildorlikni pasayishiga olib keladi.

Suli sug`oriladigan erlarda makkajo`xori, oqjo`xori, g`o`za, sabzavot ekinlari uchun yaxshi o`tmishdosh. Suli asosan doni va yashil massasi uchun ekiladi. Almashlab ekishlarda beda bilan qoplama ekin sifatida ham ekiladi.

O`g`itlash. Sug`oriladigan erlarda suli ma'danli va organik o`g`itlarga juda talabchan. Ma'danli o`g`itlar 1 ga maydonga K100_120 R80_90 K^o kg me'yorda solinadi. Organik o`g`itlardan chirigan go`ng gektariga 15 -20 t erni haydash oldidan

solinadi. Fosforli, kaliyli o`g`itlar erni haydash oldidan, azotli o`g`itlar oziqlantirishlar sifatida solinadi.

Tuproqni ishlash. Uzbekistonda suli kuzda va bahorda ekiladi. Kuzda ekiladigan suli uchun er avgust yoki sentyabr oyida haydalsa yaxshi natija olinadi. Bahorda ekiladigan suli uchun er sifatli kuzgi shudgor qilinadi.

Dala ekishdan oldin chizellanadi (14 -16 sm), baronalanadi, tekislanadi, tuproq holatiga qarab mola ham bosiladi. Bahorda ekilsa erta fevral oyi, martning boshlarida tuproq etilishi bilan boronalanadi, kultivatsiya qilib er ekishga tayyorlanadi.

Ekish. Sulida birinchi, boshqochaning pastida joylashgan urug`lar yirik, to`la, salmoqli bo`ladi va ulardan sog`lom, baquvvat, yaxshi rivojlangan o`simliklar shakllanadi. Boshqochani uchida joylashgan donlar mayda bo`ladi va ulardan hosil bo`lgan o`simliklarning mahsuldorligi past bo`ladi. Shuning uchun urug`lar ekishdan oldin fraktsiyalarga ajratiladi va bunda OS 4,5 A mashinalardan foydalaniladi. Urug`lar ekishdan oldin oftobda yoyib quritiladi, shamollatiladi (2 -3 kun), Vitovaks bilan 2 -3 kgG`t me'yorda, ekishdan kamida 20 -24 kun oldin dorilanadi.



Suli ekish seyalkasi

Suli kuzda ekilganda Samarqand viloyati sharoitida oktyabrning ikkinchi o`n kunligi, shimoliy mintaqalarda oktyabrning birinchi, janubiy viloyatlarda noyabrning birinchi o`n kunligida ekilishi mo`l hosil olishni ta'minlaydi.

Bahorda ekilganda er etilishi bilan fevral va mart oylarida ekiladi. Bahorda ekishni kechikishi don hosildorligini kamaytiradi, o`simlikning zararkunandalar bilan zararlanishi, ekinzorni begona o`tlar bilan ifloslanishini kuchaytiradi. Suli ham boshqa boshqoli don ekinlari singari qatorlab yoki torqatorlab ekilganda yuqori hosil etishtirish uchun qulay sharoit yaratiladi. Sug`oriladigan erlarda gektariga 3 -4 mln. unuvchan

urug` hisobida ekiladi. Ekish me'yorini navga, ekish muddatiga, nam bilan ta'minlanganlikka bog`liq holda o`zgarishi mumkin. Tuproqning mexanik tarkibi, namlikning miqdoriga qarab 3 -6 sm o`zgarishi mumkin.

Sug`orish. Boshqa g`alla ekinlari singari suli ham sug`orishlarga juda ta'sirchan. Nam to`playdigan sug`orishlar ekish oldidan o`tkaziladi. Usuv davridagi sug`orishlar soni 3 -4 ta.

Ekin parvarishi - boshoqli don ekinlariga xos. Suli etishtirishda erta bahorda boronalashni diagonaliga yoki ko`ndalangiga o`tkazish yaxshi natija beradi.



Chorva suli hosilini yig`ishtirish

Hosilni yig`ishtirish. Suli hosili bir vaqtda etilmaydi. Dastavval ro`vakning uchidagi, keyin o`rtasidagi va oxirida ro`vakning pastki qismidagi donlar pishib etiladi. Ikki fazali usulda hosilni yig`ishtirish yuqori samara beradi. Hosilni yig`ishtirishga ro`vak uchidagi donlar mum pishish fazasida kirishiladi.

Savollar:

1. Arpa yetishtirish texnologiyasi qanday?
2. Javdar yetishtirish texnologiyasi haqida ayting.
3. Suli yetishtirish agrotexnikasi qanday?